

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 1, 2025 vol. 2

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT
RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

**E-ISSN: 2181-2438
ISSN: 3060-5164**

**VOLUME 2, ISSUE 1
MARCH, 2025**



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 2, ISSUE 1 MARCH, 2025

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

The "Journal of Transport" established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at jot@tstu.uz.

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

The question of the location of technical stations, taking into account the traction shoulder of locomotives

S.B. Sattorov¹^a, Sh.U. Saidivaliyev¹^b, R.Sh. Bozorov¹^c, M.S. Tashmatova¹^d

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

The question of the optimal location of technical stations on the railway network plays an important role in increasing the effective use of locomotives and reducing the costs of their use. The technical stations provide services to and repair locomotives, ensuring that passenger and freight operations are unobtrusive. One important factor in choosing the location of the maintenance stations is the length of the traction shoulder, which is the distance the locomotive can travel without maintenance. The main purpose of this work, given the traction shoulder of the locomotives, is to tax the locomotives, which affects the optimal location of the technical stations. This research work examined parameters such as the periodicity of breakdowns, locomotive types, distance of routes, cost of Service and train traffic schedules. Based on this data, a mathematical model for determining rational points has been proposed when placing technical stations along the railway network. This proposed model involves the use of optimization techniques to minimize locomotive congestion for more than a period and reduce maintenance time. Such solutions, together with the introduction and costs of use, are estimated the economic efficiency with which the productivity of the system is obtained. This research may be productive for railway companies in the development of logistics schemes and infrastructure upgrades, and increases the reliability of the transports, as well as increasing efficiency in the use of locomotives in the future.

Keywords:

Location of technical stations, traction sail, railway infrastructure, maintenance, optimization, cost of use, mathematical modeling, rail traffic

Lokomotivlarning tortish yelkasini hisobga olgan holda texnik stansiyalarning joylashish masalasi

Sattorov S.B.¹^a, Saidivaliyev Sh.U.¹^b, Bozorov R.Sh.¹^c, Tashmatova M.S.¹^d

¹Tashkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Lokomotivlardan samarali foydalanishni oshirish va foydalanish harajatlarini kamaytirishda temir yo'l tarmog'iда texnik stansiyalarning optimal joylashuv masalasi muhim o'rinn tutadi. Texnik stansiyalar lokomotivlarga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash ishlarni bajarishni ta'minlaydi, bu esa yo'lovchi va yuk tashishlarni bajarishning to'htovsizligini ta'minlaydi. Texnik stansiyalarning joylashuvini tanlashda tortish yelkasining uzunligi, ya'ni lokomotivga texnik xizmat ko'rsatmagan holda, yurishi mumkin bo'lgan masofa, muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ishning asosiy maqsadi, lokomotivlarning tortish yelkasini hisobga ologan holda, texnik stansiyalarning optimal joylashuviga ta'sir etadiganomillarni taxlil qilishdir. Ushbu tadqiqot ishida buzilishlar davriyiligi, lokomotiv turlari, marshrutlarning masofasi, xizmat ko'rsatishning harajatlari va poezdlar harakati jadvallari kabi parametrlari ko'rib chiqilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida temir yo'l tarmog'i bo'ylab texnik stansiyalarni joylashtirishda ratsional nuqtalarini aniqlashning matematik modeli taklif etilgan. Ushbu taklif etilayotgan model lokomotivlarni muddatdan ziyod to'htab turishini minimallashtirish va texnik xizmat ko'rsatishga sarflanadigan vaqtini qisqartirish bo'yicha optimallashtirish usullarini qo'llanilishini o'z ichiga oladi. Shunidek bunday yechimlarni joriy etilishidan va foydalanishning harajatlari bilan birga tizimning unumdarligini olinadigan iqtisodiy samaradorlikni taxlili qilinadi. Ushbu tadqiqot logistik sxemalarni ishlab chiqishda va infratuzilmani yangilashda temir yo'l kompaniyalari uchun unumli bo'lishi mumkin va tashishlarni ishonchlilikini oshiradi, shuningdek kelajakda lokomotivlardan foydalanishda samaradorlikni oshirish mumkin.

Kalit so'zlar:

Texnik stansiyalarning joylashuv, tortish yelkasi, temir yo'l infratuzilmasi, texnik xizmat ko'rsatish, optimallashtirish, foydalanishning harajatlari, matematik modellashtirish, temir yo'l tashishlar

^a <https://orcid.org/0000-0001-7273-0449>

^b <https://orcid.org/0000-0002-4461-4093>

^c <https://orcid.org/0000-0001-8655-0764>

^d <https://orcid.org/0000-0002-9856-1775>



1. Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida temir yo'l transporti avtomobil, havo va suv transporti kabi transport turlari bilan raqobatdosh bo'lishiga to'g'ri keladi. Lokomotivlardan foydalanishning samarali boshqarilishi tashish uchun sarf-harajatlarni minimallashtirilishiga, yetkazib berishning tezligini va aniqligini yaxshilashga imkoniyat yaratadi, bu esa yuk jo'natuvchilar va yo'lovchilar uchun temir yo'l transportining yanada jozibadorligini oshiradi. Tashish talabi o'sib borayotgan sharoitda, lokomotivlarni samarali boshqarilishi uzellar va magistrallar orqali o'tayotgan poyezdlarning sonini ko'paytirishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z navbatida yuk aylanish va yo'lovchilar aylanishining o'sishiga olib keladi va natijada iqtisodning rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy muammolardan biri lokomotivlarning soni chegaralanganligi yoki ularning juda ham eskirishi, ularning harakatlanishidagi bir maromda bo'lmashligiga va manyovr ishlarining davomiyliga ta'sir etadi. Lokomotiv parkining eskirishi ham foydalanish harajatlarining o'sishiga va tashish ishonchlilagini pasaytiradi. Lokomotivlarni uzeldagi vazifasi va yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishning noto'g'ri rejulashtirilishi harakat tarkibining muddatdan ziyod to'htab turishiga, alohida uchastkalarning o'ta yukanishiga va transport zanjirida qiyin joylarni yuzaga kelishiga olib keladi. Harakat miqdori ko'p bo'lgan katta uzellarda poyezd operatsiyalarini bajarishda ushlanib qolishlar yuzaga keladi. Dispatcher va mashinistlar orasidagi kelishmovchiliklar, shuningdek boshqa tashkiliy masalalar yuklarni yetkazib berish vaqtini uzaytirishi mumkin. O'z navbatida uzelning umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Uchastka va saralash stansiyalari kabi texnik stansiyalarning joylashuvi ham temir yo'l tarmog'ining samarali ishida muhim o'r'in tutadi. Ularning joylashuvi poyezdlarning tuzilishi va qayta tuzilishi uchun sarflangan vaqtning minimallashevini, yuk va yo'lovchilarning harakatini optimallashtirishini, shuningdek tarmoqning umumiy o'tkazish qobiliyatini oshirishini ta'minlashi kerak [1,2]. Ushbu stansiyalarning temir yo'l tarmog'ida joylashuvining asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Uchastka stansiyalari:

Uchastka stansiyalari turli texnologik, masalan lokomotivlarni almashirish, poyezdlarning ekipirovkasi, vagonlarni qayta ishlash va lokomotiv brigadalarining dam olishi kabi operatsiyalarini bajarish uchun xizmat ko'rsatadi. Shuningdek ushbu stansiyalar qisman vagonlarni saralash ishlarini ham bajarishi mumkin.

Uchastka stansiyalarning joylashish tamoyillari:

- Uchastka stansiyalarning joylashuvi uchastkaning uzunligi va harakatning jadalligi bilan belgilanadi. Bunda poyezdlarning ekipirovksi, lokomotiv brigadalarining almashinuvni va manyovr ishlarini bajarilishi bilan bog'liq bo'ladi;

- Uchastka stansiyalari asosan lokomotivlarni almashish va qarama-qarshi poyezdlarning harakatini tashkil etish bo'yicha operatsiyalarini bajarish maqsadida, yirik temir yo'l magistrallari kesishgan joyda joylashadi;

- yukli vagonlarni tezkor qayta ishslash, ortish va tushirish ishlarini bajarish va keyingi marshrut bo'yicha jo'natish uchun zarur;

- odatda uchastka stansiyalari bir depo yoki bo'linma javobgar bo'lgan uchastkaning boshlanishida yoki tugashi va keyingi uchastkaning boshlanish joylarida joylashtiriladi.

2. Saralash stansiyalari:

Saralash stansiyalari poyezdlarni ommaviy qayta tuzish va qayta buzish, vagonlarni qayta ishslash va ularni turli yo'nalishlarga jo'natish uchun xizmat ko'rsatadi. Ushbu stansiyalar temir yo'l transportining samarali logistikasi uchun muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi [3,4].

Saralash stansiyalarining joylashish tamoyillari:

- Odatda saralash stansiyalari yirik magistral yo'llari tarmoqlanadigan yoki kesishadigan joylarda loyihamonlari. Bu o'z navbatida vagonlarni va poyezdlarni turli yo'nalishlarda taqsimlash imkoniyatini beradi;

- Saralash stansiyalarini ommaviy yuk hosil bo'ladigan markazlarda joylashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda turli marshrutlarda yukli vagonlarni jo'natish uchun ularni qayta ishslash vaqtini tezlashtiradi;

- Turli hududlarning chegaralarida va iqtisodiy zonalarda. Bu o'z navbatida chegara transport zonalari chegaralarida harajatlarni minimallashtirgan holda, turli mamlakatlar va hududlar orasida vagonlar oqimini optimallashtirishga imkoniyat beradi;

- Xalqaro tashishlar bilan samarador o'zaro xamkorlikni ta'minlash uchun saralash stansiyalari transchegaraviy nuqtalarda va xalqaro koridorlarda joylashishi kerak.

- Stansiyalar boshqa turdag'i transport bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak (avtomobil, daryo portlari, aeroportlar), va bu multimodal tashishlarning samaradorligini oshiradi.

- Texnik stansiyalar tarmoqlarga yuqori yuklamali sharoitlarda katta xajmidagi yuk va poyezdlarning oqimlarini qayta ishslash uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

- Stansiyalarda poyezdlar bilan operativ ishlarni ta'minlash uchun manyovr yo'llari va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun jihozlar rivojlangan bo'lishi kerak.

- Yuklarning va vagonlarning turidan kelib chiqgan holda joylashtirilishini optimallashtirish.

Ushbu tarzda, uchastka va saralash stansiyalarning temir yo'l tarmog'ida to'g'ri joylashuvi-bllanslashgan jarayon bo'lib, geografik va iqtisodiy omillarni, shuningdek poyezdlarning, yuk oqimining va vagonlarni qayta ishlov berishida o'ziga xosligini inobatga oladi.

Lokomotivlarning tortish yelkasini, lokomotiv brigadalarning ish vaqtini va termo poyezdlarning ish vaqtini hisobga olgan holda temir yo'l tarmog'ida texnik stansiyalarning joylashtirilishi, poyezdlarning to'xtovsiz va samarali harakatlanishini ta'minlash maqsadida aniq optimallashtirilishini talab etadi. Ko'rsatilgan jihatlaridan ko'ra quyida uchastka va saralash stansiyalarning joylashuviga ta'sir etadigan asosiy omillar ko'rib chiqilgan [5-8].

1. Lokomotivlarning tortish yelkasi

Tortish yelkasi — bu xizmat ko'rsatish yoki almashinishni talab etmagan holda, lokomotivning yurishi mumkin bo'lgan masofa. Tortish yelkasi lokomotivning turidan (teplovoz yoki elektrovoz), uning quvvatidan, infratuzilmaning holatidan va boshqa omillardan bog'liq bo'ladi.

Tortish yelkasidan kelib chiqib texnik stansiyalarni joylashtirish tamoyillari:



a) Tortish yelkasining uzunligi. Yoqilg'i bilan ta'minlashni talab etishi sababli teplovozlarga nisbatan, elektrovozlar uchun tortish yelkasi nisbatan uzun bo'ladi. Teplovozlar uchun tortish yelkasining o'rtacha uzunligi 200–300 km atrofida, elektrovozlar uchun — 300–500 km bo'ladi.

b) Uchastka stansiyalarni har bir tortish yelkasidan keyin joylashtirish. Odatda lokomotiv brigadalarining almashinuvini va ularga xizmat ko'rstaish maqsadida uchastka stansiyalarini tortish yelkasining oxirida joylashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek bunda marshrutda bo'lgan ushlanib qolishlarni oldini olish va lokomotivlarga bo'lgan yuklamani taqsimlash imkonini beradi.

v) Marshrutlarning o'ziga xosligini hisobga olish. Uchatskaning o'ziga g'osligi mavjud bo'lgan holda, misol uchun tog'li uchastkalar, tnneldan o'tish zaruriyati va boshqa qiyin sharoitlar, tortish yelkasi qisqartirilishi mumkin, bunda uchastka stansiyasi bunday turdag'i uchastkalarga yaqinida joylashtiriladi.

2. Lokomotiv brigadalarining ish vaqtini

Odatda lokomotiv brigadalarining ish vaqtini mehnat sharoiti va xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy talablar asosida taqsimlanadi. Lokomotiv brigadalarining ish smenasi mamlakat va mehnatning aniq sharoitlariga ko'ra 8–12 soat davom etadi.

Lokomotiv brigadalarining ish vaqtini hisobga olgan holda stansiyalarning joylashuv tamoyillari:

a) Brigadaning ish vaqtiga muvofiq bo'lgan masofada stansiyalarning joylashushi. Agar lokomotiv brigada 8 soat ishlay olsa, bunda almashish uchun stansiya shunday masofada joylashtirilishi kerkki, ushbu vaqt oralig'ida poyezd masofani bosib o'tishi kerak. Odatda yuk poyezdlari uchun 300–400 km ni, tezlik katta bo'lganligi sababli, yo'lovchi poyezdlari uchun – undan ko'p bo'lishi mumkin.

b) Brigadalarning almashinishi uchun uchastka stansiyalarini. Ushbu stansiyalar lokomotiv brigadalarining dam olishi uchun joylar bilan jihozlanishi kerak. Odatda brigadalarning almashinuvini uchastka va saralash stansiyalarda amalga oshiriladi.

v) Poyezdlar harakati jadvalini optimallashtirish. Lokomotiv brigadalari va lokomotivlar poyezdlar harakati jadvali asosida stansiyaga yetib kelishlari kerak. Bu o'z navbatida muddatdan ziyod tuhtab turishlarni qisqartirishini va tashishlarning uzlusizligini ta'minlaydi.

3. Terma poyezdlarning ish vaqtini

Terma poyezdlar temir yo'lining uchastkalarida punktlar bo'yicha vagonlarni taqsimlash va yig'ish uchun mo'ljallangan. Ularning ish vaqtini ish xajmidan, yuklarni taqsimlanishidan, shuningdek stansiyalarning infratuzilmasiga bog'liq bo'ladi.

Terma poyezdlarni inobatga olgan holda stansiyalarning joylashtirish tamoyillari:

a) Uchastka va saralash stansiyalari terma poyezdlarni qayta tuzish va qayta buzish nuqtalari sifatida. Ushbu stansiyalar vagonlarni qayta taqsimlash imkoniyati bo'lgan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan uzellarda joylashtirilishi kerak. Ushbu stansiyalarda keyingi yo'naliishlarga qayta taqsimlanishi uchun terma poyezdlar tuzilishi mumkin.

b) Uchastkalarda tarqatish. Terma poyezdlar ma'lum bir uchastkalarda ishlaydi. Shu sababli texnik stansiyalar shunday joylashtirilishi kerakki, yuk yo'naliishlarining to'planishi ko'p bo'lgan uchastkalarni maksimal darajada ta'minlashi zarur. Bunda vagonlarni yig'ish va tarqatishdagi harajatlarning minimallashtirilishiha imkoniyat beradi.

v) Uchastkalarda ish vaqt. Texnik stansiyalar shunday joylashtirilishi kerakki, terma poyezdlarning kelishi orasidagi to'htab turishlar vaqtini kamaytirish va vagonlarning keyingi taqsimlanishi bilan terma poyezdlarning samarali ishlarini ta'minlashi kerak.

3. Natija va muhokamalar

Lokomotivlarning tortish yelkasini, lokomotiv brigadalarining va terma poyezdlarning ish vaqtini hisobga olgan holda texnik stansiyalarning matematik bayoni optmallashtirish masalasi sifatida taqdim etilishi mumkin. Ushbu tizimni bayon etadigan asosiy parametrlarni va tenglamalarni ko'rib chiqamiz.

Kiruvchi parametrlar:

D — temir yo'l marshrutining umumiyligi uzunligi, km;

T_{brig} — lokomotiv brigadasining maksimal ish vaqtini, soat;

v — poyezdlar harakatining o'rtacha tezligi, km/soat;

L_{tagov} — lokomotiv uchun tortish yelkasining uzunligi, km;

T_{sbor} — uchastkada terma poyezdining ish vaqtini, soat;

N — marshrutdagi stansiyalar soni;

L_{stan} — stansiyalar orasidagi masofa, km.

Ushbu masala, lokomotivlardan foydalanishda harajatlarni, muddat ziyod to'xtab turish vaqtini va stansiyalarning sonini minimallashtirishdan iborat. Bunda lokomotiv brigadalar ish vaqtini oshirishini, lokomotivlar esa tortish yelkasini oshirishi mumkin emas.

1. Stansiyalar orasidagi masofani aniqlash:

Stansiyalar orasidagi masofa L_{stan} dquyidagi cheklanishlarni qoniqtirishi shart:

Lokomotiv o'zining tortish yelkasining chegarasidan chiqishi mumkin emas:

$$L_{stan} \leq L_{tortish} \quad (1)$$

Lokomotiv brigadasining ish vaqtini T_{brig} dan ko'p bo'lishi mumkin emas. Ushbu vaqt oralig'ida poyezd o'tishi mumkin bo'lgan masofa:

$$L_{stan} \leq v \cdot T_{brig} \quad (2)$$

Ushbu tarzda, stansiyalar orasidagi masofa L_{stan} ushbu ikkita parametrlarning minimali bilan chegaralanadi:

$$L_{stan} = \min(L_{tagov}, v \cdot T_{brig}) \quad (3)$$

2. Marshrutdagi stansiyalar soni:

D uzunlikdagi marshrutda stansiyalar soni N :

$$N = \frac{D}{L_{stan}} \quad (4)$$

L_{stan} qancha kam bo'lsa, marshrutdagi stansiyalar soni shuncha ko'p talab etiladi.

3. Terma poyezdning ish vaqtini:

Uchastkadagi terma poyezdning ish vaqtini T_{terma} yuqlarning xajmidan va taqsimlashidan kelib chiqish funksiyasi sifatida aniqlanadi:

$$T_{terma} = f(G_{xajm}, P_{punktler}) \quad (5)$$

Bu yerda G_{xajm} — stansiyada qayta ishlanadigan yuklar xajmi, $P_{punktler}$ — vagonlar uchun tayinlangan punktlar soni.

4. Lokomotiv brigadalarining almashish jadvali:

Lokomotiv brigadalarining almashishi har bir n stansiyasida bajarilishi lozim, bunda quyidagi shart bajariladi:

$$T_{vaqt} = \frac{L_{stan}}{v} \leq T_{brig} \quad (6)$$

Ushbu tarzda, brigadalarning almashish eng optimal stansiyasi, yo'ldagi jami vaqtini T_{vaqt} dan avvalgi uchastkalarda bo'lgan T_{brig} vaqtidan katta bo'lmagan joyda bo'ladi.



5. Stansiyalarning joylashuvini optimallashtirish:

Optimallashtirish masalasi, N stansiyalarning sonini minimallashtirishdan iborat bo‘lib, bunda, tortish yelkasining va brigadalarning ishlariiga bo‘lgan chegaralanishlar qoniqtirilishi kerak. Buni optimallashtirish masalasi kabi yozish mumkin:

$$\min N = \frac{D}{\min(L_{tortish}, v \cdot T_{brig})} \quad (7)$$

Terma poyezdlarning ish vaqtini va boshqa omillarni hisobga olgan holda:

$$\min[N_{uchastka} + N_{saralash} + N_{terma}] \quad (8)$$

bu yerda $N_{uchastka}$ — uchastka stansiyalarning soni, $N_{saralash}$ — saralash stansiyalarning soni, N_{terma} — terma poyezdlarning ishi uchun stansiyalar soni.

6. Qo’shimcha chegaralanishlar:

Stansiyalar poyezdlarning muddatdan ziyod to‘htab turishini minimallashtirishni ta’milagan holda joylashtirilishi kerak:

$$\min T_{to\cdot ht\cdot turish} = \sum_{i=1}^N T_{qayta\ ishslash(i)} \quad (9)$$

Bu yerda $T_{qayta\ ishslash(i)}$ — har bir stansiyada poyezdlarni qayta ishslash vaqtini.

Ushbu tarzda, matematik model stansiyalar sonini minimallashtirish va tizimning ishini samaradorlishgini oshirish maqsadida, lokomotivlarning tortish yelkasidan, lokomotiv brigadalarning ish vaqtidan va terma poyezdlarning ish vaqtidan kelib chiqib, stansiyalar orasidagi optimal masofani aniqlash imkoniyatini beradi.

4. Xulosa

Temir yo‘l tarmog‘ida texnik stansiyalarning joylashuvini murakkab masalalardan biri bo‘lib, lokomotivlarning texnik tavsifi, lokomotiv brigadalarning ish vaqtini me’yorlari va terma poyezdlarning harakatining o‘ziga hosligi kabi bir nechta omillarni hisobga olishni talab etadi. Matematik modelni qo’llagan holda tarmoqni optimallashtirilishi, nafaqat stansiyalarning sonini kamaytirishni va poyezdlarning muddatdan ziyod to‘htab turishini qisqartirishga, balki temir yo‘l transportining umumiyligi ish samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Matematik model temir yo‘l tizimining to‘htovsiz va samarali ishslashini ta’minlashi uchun quyidagilar zarurligini ko‘rsatadi:

1. Uchastka stansiyalarni lokomotivlarning tortish yelkasiga mos va lokomotiv brigadalarning ish vaqtiga muvofiq ravishda joylashtirilishi zarur.

2. Saralash stansiyalriyuklarni qayta ishslash va terma poyezdlarning shakllantirish uchun katta yirik uzel nuqtalarida joylashtirilishi zarur.

3. Harakat jadvaliga va yuk oqimiga mos ravishda terma poyezdlarning ishini va lokomotiv brigadalarning almashinishini tashkil eitish kerak.

Ushbu model temir yo‘l transportidagi tashishlar samaradorligini oshirish uchun strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Сатторов С.Б. Исследование способа размещения технических станций // Научно-технический вестник Брянского государственного университета. 2017. № 4. С. 463-468.

[2] Сатторов С.Б. Обоснование размещения технических станций в зависимости от числа полурейсов // Научно-технический вестник Брянского государственного университета. 2018. № 2. С. 239-246.

[3] Сатторов С.Б., Котенко А.Г., Белозеров В.Л. Вопросы развития железнодорожной линии Ахангаран-Тукимачи-Сырдарьинская // Известия Петербургского университета путей сообщения. 2019. Т. 16. № 3. С. 439-448.

[4] Сайдивалиев Ш.У. История поэтапного развития железнодорожной сети и создания сортировочных станций в Республике Узбекистан / Ш.У. Сайдивалиев, С.Б. Сатторов // UNIVERSUM: № 3 (120) технические науки_март. 2024 г. DOI - 10.32743/UniTech.2024.120.3.16994.

[5] Костенко В.В. Технико-технологические особенности карьерных железных дорог / В.В. Костенко, Д.С. Коробов // Инновационные транспортные системы и технологии. - 2022. - Т. 8. - № 4. - С. 31-45. doi: 10.17816/transsyst20228431-45.

[6] Суханов Г.И., Супруновский А.В., Давыдова Н.В. Оценка эксплуатационной работы станции в условиях оптимизации тяговых плеч локомотивов // Транспортная инфраструктура Сибирского региона. 2019. Т. 1. С. 93-103.

[7] Аблялимов О.С. Исследование эксплуатации тепловозов UZTE16M4 на участке Кумкурган - Ташгузар ГАЖК "Ўзбекистон темир йўллари" // Известия Транссиба. 2014. № 2 (18). С. 2-7.

[8] Белан Д.Ю. Разработка технологического процесса технического обслуживания подвижного состава // учебно-методическое пособие к выполнению курсовой работы / Омск, 2024.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Sattorov Samandar Baxtiyorovich / Sattorov Samandar Bakhtiyorovich	Toshkent davlat universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi dotsenti. t.f.n. E-mail: sattorovsamandar100@gmail.com Tel.: +99877 0735157 https://orcid.org/0000-0001-7273-0449
Saidivaliyev Shuxrat Umarxodjayevich / Saidivaliyev Shukhrat Umarkhodjayevich	Toshkent davlat universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi dotsenti. t.f.f.d. (PhD). E-mail: shuxratxoja@mail.ru Tel.: +998974622129 https://orcid.org/0000-0002-4461-4093
Bozorov Ramazon Shamil o‘g‘li / Bozorov Ramazon Shamil ugli	Toshkent davlat universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi. t.f.f.d. (PhD). E-mail: ramazon-bozorov@mail.ru Tel.: +99891 2513377 https://orcid.org/0000-0001-8655-0764



Tashmatova Toshkent davlat transport
Muqaddas universiteti “Yuk transport
Sadirkhodjayevna / tizimlari” kafedrasi katta
Tashmatova o‘qituvchisi.
Mukaddas E-mail: toshmatova.2021@mail.ru
Sadirkhodjayevna Tel.: +998935151947

<https://orcid.org/0000-0002-9856-1775>



Sh. Tadjibayev, N. Begmatov	
<i>Improvement of erosion protection technology using geosynthetic materials on the railway track.....</i>	95
F. Abdukadirov, T. Khasanov	
<i>Approximation of the general model of bridge supports to finite elements taking into account the specified loads. Analysis of the capabilities provided by the “Lira-Sapr” software complex to solve the tasks set</i>	98
S. Sattorov, Sh. Saidivaliyev, R. Bozorov, M. Tashmatova	
<i>The question of the location of technical stations, taking into account the traction shoulder of locomotives.....</i>	103
A. Ernazarov, S. Musurmonov, E. Khaytbaev	
<i>Investigation of the effect of spark plug orientation on the operation of an internal combustion engine.....</i>	108
L. Tursunboev, A. Nabiev	
<i>Characteristics and analysis of drum machine designs for polishing leather semi-finished products</i>	113
E. Shchipacheva, S. Shaumarov, A. Ukatamov	
<i>Modern trends in the formation of student dormitory architecture in the context of sustainable urban development.....</i>	119
Sh. Tadjibaev, N. Begmatov	
<i>Selection of constructive, technological and organizational solutions for strengthening railway track slopes.....</i>	125